



**THE ESSENCE OF THE INSTITUTION OF APPELLATE INSTANCE IN CRIMINAL
PROCEDURAL LAW AND ITS DEVELOPMENT**

Sadriddinova Latofat Husniddin qizi
Tashkent State Law University
Student of the Theory and Practice of Criminal Law

**Jinoyat protsessual qonunchiligida apellyatsiya instansiya institutining mazmun-
mohiyati va uning rivojlanishi**



Sadriddinova Latofat Husniddin qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat qonunchiligini qo'llash nazariyasi va amaliyoti yo'nalishi talabasi
Tel:+998904707720

Annotation

This article discusses the essence and development of the institution of criminal appellate instance in order to ensure the independence of the judiciary and increase public confidence in the justice of the judiciary. The article also discusses the problems of the appellate court in practice and suggestions for possible solutions.

Keywords: the essence and development of the institution of appellate instance, the procedure for appeal, the scope of the audit, the grounds for revocation or change of the verdict on appeal.

Annotatsiya

Mazkur maqolada odil sudlov hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash va xalq orasida sudning adolatliligiga ishonch ruhini oshirish maqsadida jinoyat ishlari bo'yicha apellyatsiya instansiya institutining mazmun-mohiyati va uning rivojlanishi haqida muhokama olib borilgan. Bundan tashqari, maqolada amaliyotda uchrayotgan apellyatsiya instansiyasi bilan bog'liq muammolar va ularga yechim bo'lishi mumkin bo'lgan takliflar keltirib o'tinilgan.

Kalit so'zlar: apellyatsiya instansiya institutining mazmun-mohiyati va uning rivojlanishi, Apellyatsiya tartibida ish yuritish, taftish jihati, apellyatsiya tartibida hukmni bekor qilish yoki o'zgartirish asoslari.

Insonlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishni qonuniy ta'minlashning kuchli vositalaridan biri aybi yo'q kishini jinoiy javobgarlikdan ozod qilish yoki aksincha, biror jinoyatni sodir etgan shaxsni qonuniy jazodan qutulib ketmasligini ta'minlashdir.



Apellyatsiya tartibida ish yuritish – yuqori turuvchi sud tomonidan protsess ishtirokchilarining shikoyati yoxud prokurorning protesti bo'yicha sudning qonuniy kuchga kirmagan hukm, ajrim va qarorlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligi tekshiriladigan jinoyat protsessining bosqichidir. Yuqori turuvchi sudning apellyatsiya tartibida ish yuritishda qonuniy kuchga kirmagan hukm (ajrim va qaror)larning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirish, protsess ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish, birinchi bosqich sudlarining faoliyatiga rahbarlik qilish kabi vazifalari mavjud.

Apellyatsiya tartibida ish yuritishning umumiy mazmuni sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- apellyatsiya tartibida shikoyat berish va protest bildirishning erkinligi;
- apellyatsiya instansiyasi sudlari tomonidan hukmning qonuniyligini ham, uning asoslanganligini ham tekshirish mumkinligi;
- apellyatsiya instansiyasi sudiga qo'shimcha materiallar taqdim etish imkoniyati mavjudligi;
- apellyatsiya tekshiruvining taftish tartibi;
- qarorni jazoni og'irlashtirish tomonga burilishiga yo'l qo'yilmasligi;
- apellyatsiya instansiyasi sudining vakolatlari kengligi.

Birinchi instansiya sudining hukmi ustidan apellyatsiya tartibida shikoyat berish erkinligi jinoyat protsessi subyektlarining keng doirasiga taqdim etilganligida ifodalanadi. JPK 497²-moddasiga muvofiq apellyatsiya tartibida shikoyat berish huquqi, huquqlari va qonuniy manfaatlarining himoyasi hukmda qabul qilingan qarorlarga bog'liq bo'lgan barcha subyektlarga berilgan. Ya'ni, mazkur shaxslar o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarining har qanday buzilishi, kamsitilishi ustidan shikoyat berishlari mumkin. Shikoyat qonunning qo'llanishiga ham, ishning faktik holatlarini aniqlashga ham taalluqli bo'lishi mumkin.

Apellyatsiya tartibida shikoyat berish erkinligiga, shuningdek shikoyat berish protsedurasining oddiyligi, osonligi ham ko'maklashadi. Bu apellyatsiya shikoyati va protestining mazmuniga va shakliga hech qanday bir maxsus talab qo'yilmaganligida ham ifodalanadi. Fuqarolarning apellyatsiya tartibida beriladigan shikoyatlariga qandaydir rasmiy talablarning qo'yilishi istar-istamas holda baribir hukm ustidan shikoyat qilish erkinligini cheklashga olib kelar edi.

Shunday qilib, hukm ustidan shikoyat berish erkinligi quyidagilar bilan kafolatlanadi:

- hukmning to'la matni e'lon qilinadi;
- uning nusxasi mahkumga va oqlangan shaxsga beriladi;
- barcha hukmlar ustidan shikoyat berish imkoniyati mavjud bo'ladi;
- shikoyatlarga nisbatan rasmiy talablar mavjud emas;
- yana bir muhim sifat: shikoyat berish erkinligini mahkum ahvolini og'irlashtiruvchi o'zgartirishlarning man etilganligi qoidasi ham ta'minlaydi, zero bu holat sudlanuvchini (mahkumni), oqlangan shaxsni o'zi, himoyachisi, qonuniy vakili tomonidan apellyatsiya tartibida shikoyat keltirilgani uchun o'z ahvolini og'irlashtirishi xavfidan muhofaza qiladi.

Bundan tashqari, apellyatsiya instansiyasi sudi apellyatsiya shikoyati yoki protesti vaj-sabablari bilan bog'lanib qolmagan. JPKning 497²⁵-moddasiga binoan, sud shikoyat yoki protestda bayon etilgan vajlar



bilan chegaralanmasdan, ishni barcha mahkumlarga, shu jumladan shikoyat bermagan hamda ustidan shikoyat yoki protest bildirilmaganlarga nisbatan ham to'la hajmda tekshiradi.

Taftish jihati apellyatsiya instansiyasining faoliyati shikoyat yoki protestga umuman bog'liq emasligini anglatmaydi. Shikoyat va protest - bu yuridik faktlar bo'lib, ularga binoan nafaqat apellyatsiya tartibida ish yuritishning o'zi kelib chiqadi, balki ishning mazkur bosqichdagi keyingi ko'rilishi ham shunga bog'liqdir, chunki shikoyat yoki protestning qaytarib olinishi apellyatsiya instansiyasi sudida ish yuritishni tugatishga olib keladi. Biroq, ayni paytda, shuni ta'kidlashimiz lozimki: apellyatsiya instansiyasi shikoyat yoki protestda bildirilgan barcha dalil va vajlarning jiddiy tahlil etilishini, ularni ish materiallari va qo'shimcha taqdim etilgan materiallar bilan qiyoslashni ta'minlashi majburiydir, zarur bo'lganda, shikoyatda ko'rsatilgan vajlar sudning ajrimida javobsiz qolmasligi uchun, qisman sud tergovi ham o'tkazilishi kerak. Demak, taftish jihati sudning shikoyat va protestdan mustaqilligini bildirmaydi, balkim apellyatsiya instansiyasi mazkur shikoyat va protestlarni ko'rayotganda birinchi instansiya sudi tomonidan yo'l qo'yilgan har qanday qoidabuzarliklarni, ular shikoyat yoxud protestda ko'rsatilgan-ko'rsatilmaganligidan qat'i nazar, bartaraf etishi shart ekanini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Sudlar tomonidan jinoyat ishlarini apellyatsiya tartibida ko'rish amaliyoti haqida"gi qaroriga muvofiq, taftish jihati quyidagilarga ko'maklashadi:

- shikoyat yoki protestda ko'rsatilgan yoki ko'rsatilmaganligidan qat'iy nazar, har qanday sud xatosini aniqlash va tuzatishga yordam beradi;
- mahkumning, oqlangan shaxsning, jabrlanuvchining va protsessning boshqa ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlanishiga ko'maklashadi;
- apellyatsiya instansiyasi tomonidan quyi sudlarning jinoyat ishlarini ko'rishga doir faoliyati ustidan nazoratning amalga oshirilishiga madad beradi;
- sudlar tomonidan protsessual, moddiy qonunlarning bir xilda qo'llanilishini ta'minlashga sharoit yaratadi.

Apellyatsiya instansiyasida hukmning qonuniyligi va asoslanganligini tekshirish, eng avvalo apellyatsiya instansiyasining birinchi instansiya sudi va tergov idoralari tomonidan qonun talablariga rioya qilingan-qilinmaganligini tekshirish majburiyatidan iborat. Har bir ish qonunda ko'zda tutilgan hukmni bekor qilish yoki o'zgartirishga olib keladigan har bir asosga nisbatan ko'rib chiqiladi. Ayni paytda, apellyatsiya instansiyasining hukmning qonuniyligi va asoslanganligini tekshirish majburiyati birinchi instansiya sudining qonuniy va asoslangan hukm chiqarish majburiyatiga muvofiq keladi.

Shunday qilib, har tomonlama tekshirish apellyatsiya tartibida ish yuritish bosqichi oldida turgan vazifalarni hal etish uchun zarur.

Qo'shimcha materiallarga turli xildagi yozma hujjatlar: tavsifnomalar, ma'lumotnomalar, turli kvitansiyalar, to'lovnomalar va hokazolar kiradi.

Qo'shimcha materiallar, shuningdek JPKning 149, 170, 290 va 398-moddalarida ko'zda tutilgan tartibda tergov idoralari tergov harakatlarini (murdani ekskumatsiya qilish, telefon va boshqa so'zlashuv qurilmalarida olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, mol-mulknini xatlash, yetkazilgan mulkiy zararni qoplashni ta'minlash) o'tkazishni topshirish orqali ham olinishi mumkin.



O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qaroriga muvofiq, qo'shimcha materiallar, agar ular protsessual qonunchilikka rioya qilgan holda olingan yoki to'plangan bo'lsa, sud tomonidan yuridik ahamiyatga ega deb qabul qilinishi, shuningdek dalil sifatida baholanishi mumkin.

Qo'shimcha materiallarni taqdim etishning maqsadi — o'z apellyatsiya shikoyatida yoki apellyatsiya protestida keltirilgan vajlarni tasdiqlash, shuningdek — boshqa subyekt tomonidan berilgan shikoyat yoki bildirilgan protest vajlarini rad etishdir.

Mahkumning shikoyatini ko'rish natijasida uning ahvoli yomonlashishiga yo'l qo'yilmasligi — bu mahkumning, oqlangan shaxsning apellyatsiya tartibida shikoyat qilish huquqining eng muhim kafolatlaridan biridir, chunki, garchand chiqarilgan hukm natijasida ularning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan bo'lsa-da, hukm ustidan shikoyat qilish natijasida o'z ahvolini og'irlashtirib qo'yishdan xavotirlanish mazkur shaxslarni apellyatsiya instansiyasi sudiga murojaat qilishdan voz kechishiga majbur qilishi mumkin. Mazkur kafolat Oliy sud Plenumining qarorida ham ko'zda tutilgan bo'lib, unda apellyatsiya instansiyasi sudi jazoni kuchaytirishga, shuningdek og'irroq jinoyatga doir qonun moddalarini qo'llashga haqli emasligi aytiladi.

Shu o'rinda xulosa qilib, apellyatsiya tartibida ish yuritishning mazmuni sifatida qonuniy kuchga kirmagan sud qarorlarini qayta tekshirish orqali fuqaro, davlat va jamiyatning huquq va manfaatlarini himoyasini ta'minlash maqsadida sud nafaqat hukmni bekor qilishi, yangidan sudda ko'rilishi uchun jo'natishi mumkin, balki apellyatsiya sudi bevosita hukmni o'zgartirishi, uni bekor qilishi va ishni tugatishi ham mumkin. Bundan tashqari, apellyatsiya instansiyasi sudi, agar birinchi instansiya sudi tomonidan yo'l qo'yilgan bo'shliqlarni to'ldirish va protsessual qoidabuzarliklarni tuzatish mumkin bo'lsa, qisman sud tergovni o'tkazishi va hukmga o'zgartirish kiritishi mumkin.

Mazkur jihatlarning har biri apellyatsiya tartibida ish yuritishning oldiga qo'yilgan vazifalarni samarali yechish uchun juda muhimdir.

Hukm yuzasidan apellyatsiya tartibida shikoyat qilinishi yoki protest bildirilishi mumkin. Bunda birinchi instansiya sudi chiqargan ajrimlari ustidan apellyatsiya tartibida shikoyat berish va protest bildirish hukm ustidan shunday harakatlarni sodir etish bilan bir paytning o'zida amalga oshirilishi mumkin.

Mahkum, uning himoyachisi, qonuniy vakili, shuningdek, jabrlanuvchi, uning vakili sudning qonuniy kuchga kirmagan hukmi ustidan shikoyat berishga, prokuror va uning o'rinbosari esa, protest bildirishga haqlidir.

Fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari hukmning fuqaroviy da'voga daxldor qismi ustidan, sudda oqlangan shaxs, uning himoyachisi va qonuniy vakili hukmning oqlash sabablari va asoslariga doir qismi ustidan shikoyat berishga haqlidir. Ishda taraf bo'lmagan shaxslar ham sud hukmining o'z huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor qismi ustidan shikoyat berishga haqlidir.

Yuqorida ko'rsatilgan shaxslar apellyatsiya instansiyasi sudining ajrimi ustidan nazorat tartibida shikoyat berish yoki protest bildirishga haqlidir.

Hukm ustidan apellyatsiya tartibida shikoyat berish yoki protest bildirish tartibi quyidagicha:



1) jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlarining qonuniy kuchga kirmagan hukmlari ustidan – Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha sudiga, jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlariga;

2) hududiy harbiy sudlarning qonuniy kuchga kirmagan hukmlari ustidan – O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudiga apellyatsiya tartibida shikoyat berish va protest bildiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining, Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha sudining, jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining hukmlari ustidan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining hukmlari ustidan berilgan apellyatsiya shikoyatlari va protestlari ayni shu sudlarning o'zi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Apellyatsiya shikoyatlari va protestlari hukm chiqargan sud orqali beriladi. Shikoyat yoki protest bevosita apellyatsiya instansiyasi sudiga topshirilgan bo'lsa, sud JPK 479-moddasining ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi qismlarida nazarda tutilgan talablarni bajarish uchun ularni hukm chiqargan sudga yuboradi.

Birinci instansiya sudining hukmi ustidan apellyatsiya shikoyatlari va protestlari hukm e'lon qilingan kundan e'tiboran o'n sutka ichida, mahkum, oqlangan shaxs, jabrlanuvchi tomonidan esa ularga hukmning nusxasi topshirilgan kundan e'tiboran shunday muddat ichida berilishi mumkin.

Belgilangan muddatdan keyin berilgan shikoyat yoki protest oqibatsiz qoldiriladi, bu haqida ularni bergan shaxslarga xabar qilinadi.

Hukm ustidan shikoyat berish yoki protest bildirish muddati uzrli sabablarga ko'ra o'tkazib yuborilgan hollarda apellyatsiya shikoyati yoki protesti berish huquqiga ega bo'lgan shaxslar hukm chiqargan sudga muddatni tiklash so'ralgan iltimosnoma bilan murojaat qilishlari mumkin. Zarur hollarda bu masala iltimosnoma bergan shaxsning ishtirokida hal qilinadi.

O'tkazib yuborilgan muddatni tiklashning rad etilganligi ustidan yuqori sudga shikoyat berish yoki protest bildirish mumkin, u muddatni tiklashi va ishni xususiy shikoyat yoki protest bo'yicha ko'rib chiqishi mumkin. Bunda JPK 479-moddasining ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi qismlarida nazarda tutilgan talablar bajarilishi zarur.

Apellyatsiya shikoyati berilishi yoki apellyatsiya protesti bildirilishi hukmni ijro etishni to'xtatib turadi. Hukm ustidan shikoyat berish va protest bildirish uchun belgilangan muddat tugagach, hukm chiqargan sud JPK 479-moddasining ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi qismlarida nazarda tutilgan talablarni bajarib, ishni shikoyatlar, protestlar hamda ular yuzasidan bildirilgan e'tirozlar, shuningdek, taqdim etilgan qo'shimcha materiallar bilan birga o'n kundan kechiktirmay apellyatsiya instansiyasi sudiga yuboradi. Bu muddatni alohida hollarda yuqori sud raisi yoki uning o'rinbosari ko'pi bilan yigirma kunga uzaytirishi mumkin.

Har qanday holda ham apellyatsiya tartibidagi shikoyat yoki protest yozma shaklda beriladi. Shikoyat yoki protestda quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

1) shikoyat, protest yo'llanayotgan sud instansiyasining nomi;

2) shikoyat bergan shaxs, uning protsessual mavqei, yashash joyi yoki turish manzili to'g'risidagi ma'lumotlar;



- 3) hukmni chiqargan sudning nomi, hukm chiqarilgan sana, shikoyat berilayotgan va protest bildirilayotgan hukm kinga nisbatan chiqarilgan bo'lsa, shu shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar;
- 4) shikoyat, protest bergan shaxsning vajlari, uning fikriga ko'ra hukm yoki boshqa qarorning noto'g'riligi nimadan iborat ekanligi hamda iltimosining mohiyati;
- 5) arizachi o'z talablarini asoslayotgan va apellyatsiya instansiyasi sudi tomonidan tekshirilishi lozim bo'lgan dalillar, shu jumladan ilgari birinchi instansiya sudida tekshirilmagan dalillar;
- 6) shikoyatga, protestga ilova qilinayotgan materiallar ro'yxati;
- 7) shikoyat, protest berilgan sana hamda shikoyat, protest beruvchi shaxsning imzosi.

Agar apellyatsiya shikoyatining, protestining mazmuni yuqorida ko'rsatilgan talablarga javob bermasa va bu kelgusida ishni mazmunan ko'rib chiqishga to'sqinlik qilsa, sudya apellyatsiya shikoyatini, protestini uni bergan shaxsga qaytarish to'g'risida apellyatsiya shikoyatini yoki protestini qayta tuzish uchun muddatni belgilagan holda uch kunlik muddatda ajrim chiqaradi. Sudyaning apellyatsiya shikoyatini, protestini qaytarish to'g'risidagi ajrimi talablari bajarilmagan va apellyatsiya shikoyati, protesti belgilangan vaqtda kelib tushmaganda, u berilmagan deb va hukm qonuniy kuchga kirgan deb hisoblanadi.

Apellyatsiya shikoyati yoki protesti chiqargan hukmi ustidan shikoyat qilinayotgan yoki protest bildirilayotgan sud instansiyasiga protsess ishtirokchilarining soniga muvofiq ko'paytirilgan nusxalarni ilova qilgan holda beriladi. Qamoqda saqlanayotgan shaxs jazoni ijro etish muassasasining ma'muriyatiga apellyatsiya shikoyatini nusxalarni ilova qilmasdan berishi mumkin.

Shikoyat qilish yoki protest bildirish uchun belgilangan muddat o'tgach, hukm chiqargan sud instansiyasi besh kun ichida jinoyat ishini apellyatsiya shikoyati yoki protesti bilan birga yuqori sud instansiyasiga yuboradi.

Hukm e'lon qilinganidan so'ng va apellyatsiya shikoyati yoki protesti berish muddati o'tgunicha taraflar shikoyat qilish yoki protest bildirishning ushbu yo'lidan voz kechishlari haqida ariza berishlari mumkin. Demak, taraflar hukm xususida apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida shikoyat qilish yoki protest bildirish yo'lini tanlash huquqiga egadirlar.

Apellyatsiya instansiyasidagi sud muhokamasi boshlangunicha, har qaysi taraf bergan apellyatsiya shikoyati yoxud protestini qaytarib olishga haqlidir. Buni apellyatsiya shikoyati yoki protestini bergan shaxs amalga oshiradi. Biroq prokuror bergan apellyatsiya protestini faqat yuqori turuvchi prokuror qaytarib olishi mumkin. Ish bo'yicha birinchi instansiya sudining ajrimi ustidan u chiqarilgan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda JPK 497²-moddasida nazarda tutilgan shaxslar tomonidan xususiy shikoyat berilishi yoki xususiy protest bildirilishi mumkin.

Hukm chiqarish bilan yakunlangan sud muhokamasi chog'ida chiqarilgan ajrim ustidan shikoyat berilgan yoxud protest bildirilgan taqdirda, hukm ustidan shikoyat berish yoki protest bildirish uchun belgilangan muddat tugagandan keyingina ish apellyatsiya instansiyasi sudiga yuboriladi.

Sud muhokamasi chog'ida chiqarilgan va dalillarni tekshirish tartibiga, protsess ishtirokchilarining iltimosnomalariga, ehtiyot chorasini tanlash, uni o'zgartirish yoki bekor qilishga, shuningdek, sud majlisi zalida tartib saqlashga oid ajrimlar ustidan JPK 497⁹-moddasining birinchi qismida nazarda



tutilgan tartibda shikoyatlar berish va protestlar bildirish mumkin emas. Bularga qarshi e'tirozlar apellyatsiya shikoyati yoxud apellyatsiya protestiga kiritilishi mumkin.

Ushbu ish bo'yicha taraf hisoblanmagan shaxslar ham sud ajrimi ustidan, basharti ajrim ularning manfaatlariga daxldor bo'lsa, shikoyat berishga haqlidir.

Birinchi instansiya sudining raisi apellyatsiya shikoyati yoki protesti tushgan ishni yuqori turuvchi sudda ko'rib chiqiladigan kun va joyni belgilaydi, JPK 497²-moddasida ko'rsatilgan shaxslar bundan xabardor qilinadi. Guvohlar, ekspertlar va mutaxassislar sud majlisiga sudning ixtiyoriga binoan taklif qilinadilar.

Barchamizga ma'lumki, **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-iyuldagi "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 6034-sonli Farmoni** qabul qilingan. Ushbu Farmon sud-huquq sohasining juda ko'p jabhalarini tubdan isloh etishga daxldor hisoblanadi. Farmonning sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish, fuqaro va tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish choralari kuchaytirish, odil sudlovni samarali ta'minlash hamda sudyalarning hamjamiyati rolini oshirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar belgilab berildi. Farmon asosida 2021-yil 1-yanvardan viloyat va unga tenglashtirilgan fuqarolik ishlari bo'yicha, jinoyat ishlari bo'yicha sudlar va iqtisodiy sudlar negizida sudyalarning qat'iy ixtisoslashuvini saqlab qolgan va sud ishlarini yuritish turlari bo'yicha alohida sudlov hay'atlarini tashkil etgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar umumyurisdiksiya sudlarini tashkil etildi.

Shuningdek, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatini ma'muriy sudlardan jinoyat ishlari bo'yicha sudlarga o'tkazildi. Shu bilan bir qatorda, ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni ko'rishga ixtisoslashtirilgan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida tumanlararo ma'muriy sudlarini tashkil etildi. Shu munosabat bilan tuman (shahar) ma'muriy sudlarini tugatildi. Bunda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari saqlab qolindi. Bundan tashqari, 2021-yil 1-yanvardan boshlab sud ishlarini nazorat tartibida ko'rish institutini tugatilib, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, Bosh prokurori va ular o'rinbosarlarining sudning hal qiluv qarorlari, hukmlari, ajrimlari hamda qarorlari ustidan nazorat tartibida protest kiritish huquqini bekor qilindi.

Shuningdek, jinoyat ishlarini sudda ko'rish uchun tayinlash bosqichida ish yuzasidan qarorlarni tortishuv tamoyiliga rioya etgan holda taraflar ishtirokida qabul qilish tartibi belgilanib, jinoyat ishining umumiy tartibda ko'rib chiqilishiga to'sqinlik qiluvchi omillarni tezkorlik bilan aniqlash va bartaraf etish imkonini beruvchi dastlabki eshituv bosqichi kiritildi.

Shu bilan bir qatorda, quyidagi tartiblari joriy etildi:

- tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining qarorlarini viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar tomonidan, viloyat va unga tenglashtirilgan sudlarning birinchi instansiya sudi sifatida chiqargan qarorlarini esa O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudlov hay'atlari tomonidan apellyatsiya tartibida qayta ko'rib chiqish;



- apellyatsiya tartibida ko'rib chiqilgan sud qarorlarini O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudlov hay'atlari tomonidan kassatsiya tartibida qayta ko'rib chiqish.

Shu o'rinda, qonuniy kuchga kirmagan hukmlarning qonuniyligi asosligi hamda adolatliligini tekshirishning huquqiy asosiga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlariga muvofiq apellyatsiya tartibida hukmni bekor qilish yoki o'zgartirish asoslari quyidagilardir:

1. Sud tergovining to'liq emasligi yoki bir yoqlama olib borilganligi. Hukm chiqarish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin bo'lgan holatlarni, aniqlamasdan qoldirgan sud tergovini bir yoqlama olib borilgan yoki to'liq olib borilmagan deb e'tirof etiladi. Mazkur asosni aniqlashda mazkur ishning isbotlash predmetiga kirgan barcha holatlar tatqiq etilgan-etilmaganligi, bunda ishni har tomonlama, to'la, obyektiv tatqiq etish talablariga rioya qilingan qilinmaganligi tekshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 497²⁰-moddasida hamisha sud tergovining to'liq emasligiga olib keladigan qoidabuzarliklar ajratib ko'rsatilgan. Bular quyidagilardan iborat:

- 1) ushbu Kodeksning 82 – 84-moddalarida ko'rsatilgan holatlar yetarlicha to'liq aniqlanmagan bo'lsa;
- 2) ko'rsatuvlari ishni hal qilish uchun jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxslar so'roq qilinmagan bo'lsa;
- 3) o'tkazilishi shart bo'lgan ekspertiza o'tkazilmagan bo'lsa;
- 4) ish uchun jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlar yoki ashyoviy dalillar talab qilib olinmagan bo'lsa;
- 5) natijalari ish uchun ahamiyatga ega bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa tergov harakatlari o'tkazilmagan bo'lsa;
- 6) ishni yangidan apellyatsiya tartibida ko'rish uchun yuborgan kassatsiya instansiyasi sudining ajrimida ko'rsatilgan holatlar tekshirilmagan bo'lsa.

2. Hukmda bayon qilingan sud xulosalarining ishning haqiqiy holatlarga muvofiq kelmasligi.

Mazkur asos quyidagi holatlarda mavjud bo'ladi:

- a) sud xulosalari sud majlisida ko'rilgan dalillar bilan tasdiqlanmagan bo'lsa;
- b) sud o'z xulosasiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan holatlarni hisobga olmagan bo'lsa;
- v) ish uchun muhim ahamiyatli holatlarga oid dalillar bir-biriga zid bo'lgani holda, sud qaysi asoslarga ko'ra dalillardan ba'zilarini ishonarli deb topib, boshqalarini rad etganligi hukmda ko'rsatilmagan bo'lsa;
- g) sudning hukmda bayon etilgan xulosalarda jiddiy ziddiyatlar mavjud bo'lib, ular sudlanuvchining aybliligi to'g'risidagi masalani hal qilishga, Jinoyat kodeksi normalarini to'g'ri qo'llashga yoki jazo chorasini belgilashga ta'sir ko'rsatgan bo'lsa yoki ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa.

Mazkur asos boshqa qator asoslar singari hukmning asoslanmaganligini ko'rsatadi. Uning mavjudligi sud hukmda haqiqatni aniqlamaganligidan, haqiqat aniqlanganini isbotlamaganligidan dalolat beradi. Mazkur asosga ko'ra hukm bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi lozim. Hukm sud xulosalarining ishning faktik holatlariga muvofiq kelmasligi mahkumning aybdorligi yoki oqlangan shaxsning aybsizligi



masalasi hal etilishiga, jinoyat qonunining to'g'ri qo'llanilishiga va jazo chorasining belgilanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan holatlarda bekor qilinadi. Boshqa holatlarda hukm o'zgartirilishi mumkin.

3. Jinoyat-protsessual qonuni normalarining jiddiy buzilishi.

Protsess ishtirokchilarini qonunda belgilangan huquqlardan mahrum qilgan yoki bu huquqlarni cheklagan yoxud sud ishni har tomonlama ko'rib chiqishiga boshqacha tarzda halal bergan hamda qonuniy, asosli va adolatli hukm chiqarishga ta'sir qilgan yoki ta'sir qilishi mumkin bo'lgan qoidabuzarliklar jinoyat-protsessual qonun normalarini jiddiy buzish deb e'tirof etiladi. Mazkur asos baholash xarakteriga egadir. U yoki bu qoidabuzarlikni jiddiy yoki jiddiy emasligini hal etishda faqat alohida jinoyat ishining muayyan holatlaridan kelib chiqish mumkin bo'ladi. Bir qoidabuzarlik bir vaziyatda jiddiy bo'lishi va boshqa bir vaziyatda jiddiy bo'lmasligi mumkin. U yoki bu qoidabuzarlikni jiddiy yoxud jiddiy emas deb e'tirof etish alohida ishning shart-sharoitlari bilan belgilanadi, shuning uchun bunday qoidabuzarliklarni shartli qoidabuzarliklar, deb atash qabul qilingan.

Ayni paytda shartli ravishda jiddiy sanaladigan qoidabuzarliklar bilan birga jinoyat-protsessual qonunchiligi tomonidan bunday qoidabuzarliklarning alohida bir guruhi ajratib ko'rsatiladiki, ularning hukmning qonuniyligi va asoslanganligiga ta'siri aniqlanishi talab etilmaydi. Ular har qanday sharoitda va har qanday jinoyat ishi bo'yicha ham qonun chiqaruvchi tomonidan jiddiy qoidabuzarlik sifatida e'tirof qilinadi.

Jinoyat-protsessual kodeksiga ko'ra jiddiy qoidabuzarliklar guruhiga quyidagilar kiradi:

- a) hukmni qonunga xilof tarkibdagi sud chiqargan bo'lsa;
- b) sudyaning hukmni yakka o'zi chiqarishi tartibi yoki hukm chiqarishda sudyalarning maslahatlashuvining sir saqlanishi buzilgan bo'lsa;
- v) ish sudlanuvchining yo'qligida ko'rilgan bo'lsa, ushbu JPKning 410-moddasi uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;
- g) dastlabki tergov tamomlanganidan so'ng ayblanuvchi ishdagi barcha materiallar bilan tanishtirilmagan va bu qoidabuzarlik hukm chiqargan sud tomonidan bartaraf etilmagan bo'lsa;
- d) himoyachisi bo'lmagan sudlanuvchiga himoya nutqi uchun so'z berilmagan bo'lsa;
- e) sudlanuvchiga oxirgi so'z berilmagan bo'lsa;
- o) sudlanuvchining ona tilidan va tarjimon xizmatidan foydalanish huquqi buzilgan bo'lsa;
- j) qonunga ko'ra himoyachining ishtiroki shart bo'lib, ish uning ishtirokisiz tergov qilingan yoki ko'rib chiqilgan bo'lsa;
- i) ishni yuritishni istisno etadigan holatlar bo'la turib, dastlabki tergov va sud muhokamasi o'tkazilgan bo'lsa;
- k) sud majlisi bayonnomasi ishga tikilmagan yoxud imzolanmagan bo'lsa.

Keltirilgan qoidabuzarliklar, shubhasiz, jinoyat-protsessual qonunning jiddiy buzilishlari hisoblanadi.

4. Jinoyat kodeksi normalarining noto'g'ri qo'llanilishi.

Mazkur asos quyidagi holatlarda mavjud bo'ladi:

- a) sud tomonidan qo'llanilishi kerak bo'lgan qonun qo'llanilmagan;



b) qo'llanishi kerak bo'lmagan qonun qo'llangan;

v) qonun uning aniq mohiyatiga zid ravishda noto'g'ri talqin etilgan.

Ko'rib chiqilayotgan asosning tipik namunasi - ayblanuvchi (mahkum) xatti-harakatlarini kvalifikatsiya qilishdagi xatoliklar. Jinoyat qonunining noto'g'ri qo'llanilganini aniqlagan sud hukmni o'zgartiradi yoki bekor qiladi.

Jinoyat qonunining noto'g'ri qo'llanishida ifodalanadigan asosga nisbatan shuni qayd etamizki, jinoyat protsessida fuqarolik qonuni normalari ham qo'llaniladi. JPKda ko'zda tutilgan asoslar tizimida fuqarolik qonuni normalari qo'llashdan kelib chiquvchi qoidabuzarliklar qamrab olinmagan. Bu yana bir o'rganilmagan huquq sohasi bo'lib, uning oqibati - hukmni bekor qilish yoki o'zgartirish asoslari tizimida kamchiliklarning mavjudligidir.

5. Jazoning adolatsizligi.

Mazkur asosning mazmuni shunday holatlarni qamrab oladiki, unda jinoyat to'g'ri kvalifikatsiya qilinadi va jazo ham to'g'ri qo'llanilgan qonun sanksiyasi doirasida bo'ladi, ammo mazkur jazoning turi va me'yorini jinoyat huquqi nuqtai nazaridan adolatsiz bo'lib, sodir etilgan jinoyatning og'irligiga va mahkumning shaxsiga muvofiq emas. Mazkur asosning mustaqil asos sifatida ajratib ko'rsatilishi muhim ahamiyatga egadir. Bu sudning e'tiborini uning jazo me'yorini individuallashtirish, adolatli jazo tayinlash majburiyatlariga qaratadi.

Shunday qilib, JPKning 497²⁰⁻²¹, 497²⁴-moddalarida ko'zda tutilgan apellyatsiya asoslari hukmning asoslanmaganligiga aniqlik kiritadi, JPKning 497²²⁻²³-moddalarida ko'zda tutilgan apellyatsiya asoslari - hukmning noqonuniyligini namoyon qilib ko'rsatadi.